



# The realization of the term "Futurity" in English and Uzbek

Ziodakhan ALIYEVA<sup>1</sup>

Andijan State Institute of Foreign Languages

## ARTICLE INFO

### Article history:

Received April 2024  
Received in revised form  
10 May 2024  
Accepted 25 May 2024  
Available online  
25 June 2024

### Keywords:

futurologiya,  
the future of humanity,  
universal problems,  
prediction.

## ABSTRACT

Humanity was created in such a way that it wants to create unique innovations in the world. It is true that, innovations have been made before and are still being made. If we pay attention to the definition of the lexeme of futurology given in Wikipedia: Futurology (lat. futurum – future and ...logy) – in a broad sense – a general concept or set of ideas about the future of humanity, universal problems; in a narrow sense, it is a field of science that provides an opportunity to predict the future of social processes and processes related to the development of science and technology. Currently, there are two main trends in Futurology. Among them, supporters of the first direction – "ecological pessimism" predict the negative consequences of human development, supporters of the second direction – representatives of scientific and technical optimism believe that it is possible to save human civilization based on the positive possibilities of technological development.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss1/S-pp672-678>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Ingliz va o'zbek tillarida "futurallik" atamasini voqelanishi

## ANNOTATSIYA

### Kalit so'zlar:

futurologiya,  
insoniyat kelajagi,  
umumbashariy muammolar,  
bashorat qilish.

Insoniyat yaratilibdiki, dunyoda o'ziga hos yangiliklar yaratishni hohlab yashaydi. To'g'ri, yangiliklar avval ham qilingan va hozirda ham yaratilishda davom etmoqda. Futurologiya leksemasiga Vikipediya berilgan ta'rifga e'tiborimizni qaratsak: Futurologiya (lot. futurum – kelajak va ...logiya) – keng ma'noda – insoniyat kelajagi, umumbashariy muammolar haqidagi umumiy konsepsiya yoki tasavvurlar majmuasi; tor ma'noda – ijtimoiy jarayonlar hamda fan-texnika taraqqiyotiga oid sohalardagi

<sup>1</sup> Teacher, Andijan State Institute of Foreign Languages. Andijan, Uzbekistan.

jarayonlarni izchillikda o'rganish va kelajagini bashorat qilish imkoniyatini beradigan fan sohasi, "bashorat qilish" so'zining sinonimi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda Futurologiyada ikkita asosiy yo'nalish kuzatiladi. Ulardan birinchi yo'nalish – "ekologik pessimizm" tarafdorlari insoniyat rivojining salbiy oqibatlarini bashorat qilsalar, ikkinchi yo'nalish tarafdorlari – ilmiy-texnikaviy optimizm namoyandalari texnologiya taraqqiyotining ijobiy imkoniyatlari asosida insoniyat sivilizatsiyasini saqlab qolish mumkin, deb hisoblaydilar.

## Реализация термина «будущее» в английском и узбекском языках

### АННОТАЦИЯ

#### Ключевые слова:

футурология,  
будущее человечества,  
общечеловеческие  
проблемы,  
предсказание.

Если обратить внимание на определение лексемы футурологии, данное в Википедии: Футурология (лат. futurum – будущее и...логия) – в широком смысле – общее понятие или совокупность представлений о будущем человечества, общечеловеческих проблемах; в узком смысле – это область науки, дающая возможность прогнозировать будущее социальных процессов и процессов, связанных с развитием науки и техники. Статья исследует двойственную природу инноваций в контексте футурологии, области науки, изучающей будущее человечества и его социальные и технологические аспекты. Футурология, как указывается в статье, разделяется на два основных направления: экологический pessimizm, который предсказывает негативные последствия развития человечества, и научно-технический оптимизм, который видит в технологическом прогрессе способ спасения человеческой цивилизации. Статья обсуждает эти противоположные взгляды и представляет анализ текущих инноваций и их влияния на будущее общества.

Insoniyat yaratilibdiki, dunyoda o'ziga hos yangiliklar yaratishni hohlab yashaydi. To'g'ri, yangiliklar avval ham qilingan va hozirda ham yaratilishda davom etmoqda. Demak, bundan ko'rinib turibdiki, zamon bizdan ham o'ziga hos yangiliklarni yaratishni talab etmoqda. Biz ham tilshunos sifatida hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lgan **futurologiya** atamasi haqida ozroq to'htalib o'tmoqchimiz.

Dastavval, **futurologiya** leksemasiga Vikipediyada berilgan ta'rifga e'tiborimizni qaratsak: **Futurologiya** (lot. futurum – kelajak va ...logiya) – **keng ma'noda** – insoniyat kelajagi, umumbashariy muammolar haqidagi umumiy konsepsiya yoki tasavvurlar majmuasi; **tor ma'noda** – ijtimoiy jarayonlar hamda fan-texnika taraqqiyotiga oid sohalardagi jarayonlarni izchillikda o'rganish va kelajagini bashorat qilish imkoniyatini beradigan fan sohasi, "**bashorat qilish**" so'zining sinonimi hisoblanadi. 1943-yil nemis sotsiologi O. Fleytxeym "**Futurologiya**" terminini **kelajak haqidagi fan** sifatida ishlatishni tilshunos olimlardan biri Oldosu Xaksliga yozgan xatida ishlatish tashabbusi bilan chiqadi va

Xaksligga taklif qilgan va tilshunos olim ham uning fikrlarini ma'qullagan. Futurologiyaga birinchi ilmiy bashorat qilishga urinishlar XIX asr oxirida paydo bo'lib, Geogr Ermanning "Germaniya 2000da" (1891), Ivan Blianning "Kelajakdagi urush va ularning iqtisodiy oqibatlari" (1897), Gyustav de Molinarining "Kelajakdagi jamiyatni siyosiy va iqtisodiy tashkil qilishning xomaki chizmasi" (1899), "Gerbert Uellsning "Oldindan zavqlanish" (1901) kabi asarlar yaratilgan.

Hozirgi vaqtda Futurologiyada ikkita asosiy yo'nalish kuzatiladi. Ulardan birinchi yo'nalish – "**ekologik pessimizm**" tarafdorlari insoniyat rivojining salbiy oqibatlarini bashorat qilsalar, ikkinchi yo'nalish tarafdorlari – ilmiy-texnikaviy optimizm namoyandalari texnologiya taraqqiyotining ijobiy imkoniyatlari asosida insoniyat sivilizatsiyasini saqlab qolish mumkin, deb hisoblaydilar [1.25]. Sotsiolog O. Fleytxeymning fikrlarini qo'llab-quvvatlagan holda, biz ham **futurologiya** terminini kelajakni bashorat qilish, ilmiy-texnikaviy texnologiya taraqqiyotining ijobiy imkoniyatlarini yaratish bosqichi bo'la oladi deb hisoblaymiz.

Insoniyat borki, uni ertaga nima kutayotganini bilishni xohlab yashaydi. Bu hohish insoniyat tafakkuri paydo bo'lgandan beri mavjud bo'lib, kelajakni bashorat qilib yashashni va uni kelajakda nimalar kutyotganini bilishga intilib yashaydi.

Endi esa **futurologiya** terminiga ingliz tilida Vikipediya da berilga ta'rifni ham berib o'tsak: **Futures studies, futures research, futurism, or futurology** is the systematic, interdisciplinary and holistic study of social/technological advancement, and other environmental trends; often for the purpose of exploring how people will live and work in the future. Predictive techniques, such as forecasting, can be applied, but contemporary futures studies scholars emphasize the importance of systematically exploring alternatives. In general, it can be considered as a branch of the social sciences and an extension to the field of history. Futures studies (colloquially called "**futures**" by many of the field's practitioners) seeks to understand what is likely to continue and what could plausibly change. Part of the discipline thus seeks a systematic and pattern-based understanding of past and present, and to explore the possibility of future events and trends.

Ingliz tilida berilgan manbalarda ham **futurologiya** termini kelajakni o'rganuvchi yoki bashorat qiluvchi fan bo'lib, ijtimoiy/texnologik taraqqiyot va boshqa ekologik tendentsiyalarni tizimli, fanlararo va yaxlit o'rganish hisoblanib, ko'plab odamlar kelajakda qanday yashashi va ishlashini o'rganish uchun hisoblanadigan yo'nalish ekanligi ta'kidlanadi.

O'zbekiston milliy entsiklopediyasidagi ma'lumotlarda ko'rsatilishicha, **futurologiya** ikki yo'nalishda shakllangan. **Birinchi yo'nalish** – ekologik pessimizm tarafdorlari insoniyat rivojining salbiy oqibatlarini bashorat qilsalar, ikkinchi yo'nalish – ilmiy-texnikaviy optimizm namoyandalari texnologiya taraqqiyotining ijobiy imkoniyatlari asosida insoniyat tsivilizatsiyasini saqlab qolish mumkin, deb hisoblaydilar.

Qomus.info. manbalarida ko'rsatilishicha **futurologiya** (lot. **futurum** – kelajak va...logiya) – **keng ma'noda** – insoniyat kelajagi, umumbashariy muammolar haqidagi umumiy konsepsiya yoki tasavvurlar majmuasi; **tor ma'noda** – ijtimoiy jarayonlar hamda fantexnika taraqqiyotiga oid sohalardagi jarayonlarni izchillikda o'rganish va kelajagini bashorat qilish imkoniyatini beradigan fan sohasi hisoblaniladi [4.35].

"**Futurologiya**" termini lotincha "futurum" – "kelajak" va yunoncha "logos" – "fan" so'zlaridan olingan bo'lib, kelajakni ekstra-polyatsiya (narsa va hodisaning bir qismini kuzatish asosida olingan, xulosalarni uning boshqa qismiga yoyish yoki tatbiq etish) yo'li

bilan mavjud texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy holatni tahlil qilgan holda oldindan aytib berishga harakat qiladi.

“**Futurolog**” atamasi mo‘jizaviy tarzda bashorat qilishni bildirmaydi, balki mavjud voqelikning taraqqiy qilish darajasi, tezligi, o‘zgarishlarning oqibatlarini tahlil qilib o‘rganadi. Hozirda futurolog sifatida tan olingan olimlar bor. Ular asosan texnologik an‘analarni o‘zlashtirgan va o‘z kitoblarida kuzatish natijalari, fikr va xulosalari, bashoratlarini keltirib o‘tishgan. Shunday mutaxassislardan biri Olvin Tofflerdir. Uning “Madaniyat iste‘molchilari”, “Uchinchi to‘lqin nazariyasi”, “Kelajak bilan to‘qnashuv” kabi asarlari mashhur.

Ingliz tilida berilgan Britannica saytida **futurologiyaga** quyidagi ta‘riflar keltirilganligini ko‘rishimiz mumkin: **futurology**, in the social sciences, the study of current trends in order to forecast future developments. While the speculative and descriptive aspects of futurology are traceable to the traditions of utopian literature and science fiction, the methodology of the field originated in the “technological forecasting” developed near the end of World War II, of which *Toward New Horizons* (1947) by Theodore von Kármán is an important example [3.65]. Tarjimasi esa quyidagicha: **futurologiya**, ijtimoiy fanlarda, kelajakdagi rivojlanishlarni bashorat qilish uchun hozirgi tendentsiyalarni o‘rganadi. Futurologiyaning spekulativ va tavsifiy jihatlari utopik adabiyot va ilmiy fantastika an‘analariga taalluqli bo‘lsa-da, ushbu sohaning metodologiyasi Ikkinchi Jahon urushi oxiriga yaqin ishlab chiqilgan “**texnologik prognozlash**” birikmasidan dan kelib chiqqan bo‘lib, undan “**Yangi ufqlar tomon**” (1947) Teodor fon Karman muhim misoldir.

At the RAND Corporation in California during the 1950s, Herman Kahn and others pioneered the so-called scenario technique for analyzing the relationship between weapons development and military strategy. Later Kahn applied this technique in *On Thermonuclear War* (1960), a book that examines the potential consequences of a nuclear conflict. During the time of Kahn’s first studies, the mathematician Olaf Helmer, also at RAND, proposed a theoretical basis for the use of expert opinion in forecasting. **Tarjimasi:** 1950-yillarda Kaliforniyadagi RAND korporatsiyasida Herman Kan va boshqalar qurol ishlab chiqish va harbiy strategiya o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish uchun stsenariy deb ataladigan texnikani yaratdilar. Keyinchalik Kan bu usulni “*Thermonuclear War*” (1960) kitobida, yadroviy mojaroning mumkin bo‘lgan oqibatlarini o‘rganadi. Kanning birinchi tadqiqotlari davrida matematik Olaf Xelmer ham RANDda prognozlashda ekspert xulosasidan foydalanishning nazariy asosini taklif qildi.

In 1964 the French social scientist Bertrand de Jouvenel published *L’Art de la conjecture* (The Art of Conjecture), in which he offered a systematic philosophical rationale for the field. The following year the American Academy of Arts and Sciences formed its Commission on the Year 2000 “to anticipate social patterns, to design new institutions, and to propose alternative programs”; the commission’s 1967 report constituted the first wide-ranging futurological study in the United States [3.96]. **Tarjimasi:** 1964-yilda frantsuz ijtimoiy olimi Bertrand de Jouvenel *L’Art de la conjecture* (Gazochilik san‘ati) asarini nashr etdi, unda u ushbu soha uchun tizimli falsafiy mantiqni taklif qildi. Keyingi yili Amerika san‘at va fanlar akademiyasi 2000-yilda “ijtimoiy naqshlarni oldindan ko‘rish, yangi institutlarni loyihalash va muqobil dasturlarni taklif qilish” uchun komissiyasini tuzdi; komissiyaning 1967-yilgi hisoboti Qo‘shma Shtatlardagi birinchi keng ko‘lamli futurologik tadqiqot bo‘ldi.

The field was brought to wide popular attention in 1972 when Dennis Meadows and colleagues at the Massachusetts Institute of Technology published *The Limits to Growth*, based on a study commissioned by the Club of Rome, an international assembly of business

leaders. This report focused on hypotheses derived from a computer model of the interaction of various global socioeconomic trends; it projected a Malthusian vision in which the collapse of world order would result if population growth, industrial expansion, and increased pollution, combined with insufficient food production and the depletion of natural resources, were to continue at current rates. To offset these trends, the report called for “a Copernican revolution of the mind,” to reevaluate the belief in endless growth and the tacit acceptance of wastefulness. Besides zero population growth and a leveling-off of industrial production, the report also recommended increased pollution control, the recycling of materials, the manufacture of more durable and repairable goods, and a shift from consumer goods to a more service-oriented economy. The U.S. government-commissioned *Global 2000 Report to the President* (1981) reiterated many of these concerns. **Tarjimasi:** 1972-yilda Dennis Meadouz va Massachusets texnologiya institutidagi hamkasblari biznes rahbarlarining xalqaro assambleyasi bo‘lgan Rim klubi topshirig‘i asosida o‘tkazilgan "O‘shish chegaralari" asarini nashr etishganda, bu soha keng omma e‘tiboriga tushdi. Ushbu hisobot turli global ijtimoiy-iqtisodiy tendentsiyalarning o‘zaro ta‘sirining kompyuter modelidan olingan farazlarga qaratilgan; u, agar aholi sonining ko‘payishi, sanoatning kengayishi va ifloslanishning kuchayishi, oziq-ovqat ishlab chiqarishning etarli emasligi va tabiiy resurslarning kamayishi hozirgi sur‘atlarda davom etsa, dunyo tartibining qulashi natijasida paydo bo‘ladigan Maltuscha qarashni prognoz qildi. Ushbu tendentsiyalarni bartaraf etish uchun hisobot cheksiz o‘shishga bo‘lgan ishonchni va isrofgarchilikni so‘zsiz qabul qilishni qayta ko‘rib chiqish uchun “Kopernik ong inqilobi”ga chaqirdi. Hisobotda aholi sonining nol o‘shishi va sanoat ishlab chiqarishini tekislashdan tashqari, ifloslanishni nazorat qilishni kuchaytirish, materiallarni qayta ishlash, ko‘proq bardoshli va ta‘mirlanadigan tovarlar ishlab chiqarish va iste‘mol tovarlaridan ko‘proq xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan iqtisodiyotga o‘tish tavsiya etiladi. AQSh hukumati tomonidan Prezidentga topshirilgan Global

2000 hisobotida (1981) bu xavotirlarning ko‘pchiligi yana bir bor takrorlangan.

**Criticism** of these and other studies has centred mainly on the limitations of models and the subjective, interpretive nature of projections based on them. Futurologists generally acknowledge these difficulties but emphasize the increasing sophistication of their analytic techniques, which draw from such fields as mathematics, economics, environmental research, and computer science. **Tarjimasi:** Ushbu va boshqa tadqiqotlarning tanqidi asosan modellarning cheklovlari va ularga asoslangan proektsiyalarning sub‘ektiv, sharhlovchi xarakteriga qaratilgan. Futurologlar odatda bu qiyinchiliklarni tan olishadi, lekin matematika, iqtisod, atrof-muhitni o‘rganish va informatika kabi sohalardan kelib chiqadigan analitik texnikasi tobora takomillashib borayotganini ta‘kidlaydilar.

Other notable basic works in futurology include *Future Shock* (1970) by Alvin Toffler, *The Coming of Post-Industrial Society* (1973) by Daniel Bell, *The Fate of the Earth* (1982) by Jonathan Schell, and *The Green Machines* (1986) by Nigel Calder. **Tarjimasi:** Futurologiya bo‘yicha boshqa muhim asosiy ishlar qatoriga Alvin Tofflerning “Kelajak zarbasi” (1970), Deniel Bellning “Post-industrial jamiyatning kelishi” (1973), Jonatan Shellning “Yer taqdiri” (1982) va “Yashil mashinala” (1986) kiradi. Nayjel Kalder.

Yuqorida biz ingliz tilidagi berilgan materiallar asosida futurologiyani voqelanishi haqida ozroq to‘htalib o‘tgan bo‘lsak, endi esa o‘zbek tili futurologiyasi haqida ozroq ma‘lumotlar berib o‘tmoqchimiz.

Bizga ma'lumki, kelajakka bo'lgan intilish nafaqat tabiatga nisbatan, balki insonlar taqdirini bilishga ham qaratilgan bo'lishi o'zbek madaniyatida ham katta ro'l o'ynaydi. Bunga misol tariqasida folbinlar, munajjimlar faoliyatini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Antik adabiyotni kuzatadigan bo'lsak ham voqealarni oldindan bilishga bo'lgan harakatlarni yaqqol ko'ramiz. Sofoklning «Shoh Edip» asarini olib ko'raylik. Unda yangi tug'ilgan chaqaloqning taqdiri aytib beriladi va bu bashorat oxir-oqibat yuzaga chiqadi [4.89]. Bizningcha, har bir odamzotning kelajagini bilishni hohlash va uni taqdirida nimalar bitilganligini bilib yashashi tabiiy, chunki kelajakka intilib yashash tuyg'usi insonda ertangi kunga ishonch va ko'plab orzular ro'yobi insonni yana ham yashashga bo'lgan ishtiyog'ini oshiradi.

**Sanobar Jumanova, "Ma'rifat" gazetasida berilgan maqolasida** [2.68] berilishicha, O. Tofflerning "Kelajak bilan to'qnashuv" kitobi 1970-yillarda yozilgan bo'lishiga qaramay haligacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Bu asarda yaqin kelajakda insoniyat hayotida kechadigan o'zgarishlar va ularning oqibatlari haqida so'z boradi. Mavjud voqelik asosida xulosa chiqarilgan. "Evrilishlar ayni hayotning o'zi demakdir. Ammo quyushqonni tark etib erkinlikka chiqib olgan o'zgarishlar jilovlab bo'lmaydigan va boshqarishga ko'nmaydigan, borgan sari tezlashib boruvchi va insonning nafaqat jismoniy, balki qaror qabul qilishdagi psixologik mexanizmlarini ham barbod qiluvchi, hayotga yot, insonga dushman hodisalardir".

Jamiyatimizda yuz berayotgan va yuz bermoqchi bo'layotgan yangiliklar, biz ko'rib turgan dunyoni butunlay ostin-ustun qilib tashlaydi. Toffler yashash sur'atining tezlashishini bashorat qilar ekan, ma'lum bo'lgan, butundunyo shaharlashuv jarayoni, ishlab chiqarishning o'sishi, yangidan-yangi iste'mol buyumlarining ko'payishi kabi ma'lum faktlarga tayanadi [2.134].

Olim Kurt Karem "Biz yigirmanchi asr odamlari insoniyat tarixida besh ming yil davom etgan bir davrni xotimalaymiz" deydi. Kennet Boulding esa XX asr tarixdagi eng muhim burilish nuqtasi ekanini isbot qilar ekan, shunday deydi: "Bugungi dunyo... men tug'ilib ko'z ochgan dunyodan tubdan farq qiladi. Bu farq men tug'ilgan dunyo bilan Yuliy Sezar dunyosi o'rtasidagi farqdan kam emas. Agar insoniyat tarixiga bugungi kun nuqtai nazaridan qarasaq, men bu tarixning qoq o'rtasida tug'ilganman, desak bo'ladi. Dunyoga kelmasimdan oldin qancha hodisotlar sodir bo'lgan bo'lsa, men tug'ildandan beri shuncha hodisot o'tdi".

XXI asrga kelib esa hodisalarning ro'y berish sur'ati, jarayonlarning uzluksiz ravishda kechishini kuzatayapmiz. Axborot olish va axborot uzatishning yanada osonlashishi, internetning kirib kelishi, uyali aloqaning keng tarqalishi, masofalarni pisand qilmayapti.

Olvin Toffler "Oson almashtirsa bo'ladigan inson" iborasini ishlatadi. Bu borada psixolog Kortni Tolning fikri e'tiborga loyiq: "Uncha ko'p bo'lmagan odamlar bilan yaqin munosabatlarga asoslanadigan barqarorlik samarasiz bo'lib chiqadi... Harakatchanlikning bundan keyingi kuchayishi va odamlarning o'zaro juda tez do'stlik o'rnatish qobiliyati hamda shu qadar tez uni to'xtatib qo'yish yoki shunchaki unutish shunga olib keladiki, kelajakda o'tmish uchun xarakterli bo'lgan bir nechta ko'p yillik do'stona munosabatlar o'rnini ko'pgina qisqa muddatli do'stlik aloqalari egallaydi".

Bu bashorat bugungi kunda ro'yobga chiqdi. Internet saytlarida siz o'zingizga osongina do'st topasiz, bugun u bilan virtual olamda dildan gaplashasiz, do'st tutinasiz, lekin ertaga u bilan gaplashishning imkoni yo'q. Shu bois insonning inson oldidagi qadri yo'q, munosabatlar mo'rt.

Insonning inson oldidagi qadri yo'qolishini buyumlarning qadrsizligi bilan izohlash mumkin. Masalan, har bir inson oxirgi chiqqan telefonni sotib olgisi keladi. Chunki bunisi oldingidan yaxshi, uning funktsiyalarida ko'proq qulayliklar mavjud. Shunday qilib, eski telefonning qadri yo'qoladi (garchi uni biror yaqin odamimiz sovg'a qilgan bo'lsa ham).

Shuningdek, bir marta foydalanish mumkin bo'lgan idishlarning ko'payishi chaqaloqlarning bir martalik tagliklari, konserva qutilari, saqich qog'ozlari, yangidan-yangi kiyimlarning modaga chiqishi buyumlarga bo'lgan sovuq munosabatni shakllantiradi. Kelajakda esa buyumlarning ahamiyatsizligi kuzatiladi.

Olvin Toffler hayotning sur'ati tezlashishini bashorat qilar ekan, Frantsiyadagi bistro(an'anaviy taomxona)larning yo'qolishi va fast-fudlarning ko'payishi bilan izohlaydi. Ya'ni, ilgari frantsuzlar ochiq havodagi bistroga kirib, bir-ikki soat bemalol ovqatlanishardi, endi ular fast-fud deb ataladigan jo'ngina peshtaxta oldida tik oyoqda sutli kokteylni yutib, yana chiqib ketaveradi.

Odamlar ovqatlanish uchun ham kam vaqt sarflashiga to'g'ri kelyapti. "Rolton", "Big Bon" kabi tez tayyor bo'luvchi ovqatlar bunga misoldir.

Aytish mumkinki, O. Tofflerning ilmiy bashoratlari to'g'riligi isbotlanmoqda.

Kelajakda insonning boylikka, moddiylikka bo'lgan munosabati ham o'zgarishi kutilmoqda. "Intellektual mulk hamma moddiy boyliklardan ustun bo'ladi. Inson qandaydir moddiy manbaga ega bo'lmagan holda jahd qilib boylik yaratadi", deydi Toffler.

Insoniyat yaqin kelajakda axborot oqimining kuchaygan to'lqinlari orasida qolishi kutilmoqda. Mutaxassis Robert Xilyard quyidagi hisob-kitobni keltiradi: "Hozirgi sur'atlar saqlanib qoladigan bo'lsa, bugun tug'ilgan go'dak kollejni tugatayotgan paytda mavjud axborotning hajmi to'rt baravar ko'payadi, u ellik yoshga to'lganda esa bilimlar miqdori 32 martaga oshadi. Buning ma'nosi shuki, jamiki inson bilimlarining 97 foizi go'dak tug'ilgandan keyin dunyoga keladi".

Bugun axborot omili va uzatish shu qadar osonlashganki, kompyuter qarshisida o'tirib, dunyoning qay burchagida qanday voqea sodir bo'layotganini bilish mumkin. Qadimda ham voqealar yuz bergan, lekin uni bilish imkoni mavjud bo'lmagan. Masalan, Misr ehromlarining borligini Gerodot o'z "Tarix" kitobida yozmaguncha, qariyb 2000-yil davomida dunyo bilmagan. Bir so'z bilan aytganda, kelajak insonga juda ko'p imkoniyatlarni beradi [2.54].

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Futurologiya – Vikipediya (wikipedia.org)
2. Sanobar Jumanova, «Ma'rifat» gazetasidan olindi. <https://www.ziyouz.com>.
3. <https://www.britannica.com/topic/futurology>
4. <https://qomus.info>.
5. <https://www.ziyouz.com>
6. «Атлас новых профессий» Коллектив авторов. Москва.2015 9-стр.
7. Анохин П.К. Биология и нейрофизиология условного рефлекса. М.: Медицина, 1968.43- стр.
8. Катичева М.Г. Методы прогностики в системе теоретических педагогических знаний // Северо-Кавказский психологический вестник. – 2010. – № 8 (4). – С. 21-25.